Результаты: В большинстве случаев после хирургического лечения отмечалось улучшение анатомического состояния тазовых органов и уменьшение выраженности клинических симптомов. Снизились чувство тяжести, давления и дискомфорта в области таза, улучшились показатели качества жизни. Вместе с тем у части пациенток были выявлены рецидив пролапса, развитие стрессового недержания мочи de novo, синдром хронической тазовой боли и сексуальная дисфункция. У части сексуально активных женщин после операции наблюдалось улучшение сексуальной жизни, тогда как в отдельных случаях отмечались диспареуния, снижение сексуальной удовлетворённости и ухудшение качества интимных отношений. Указанные осложнения отрицательно влияли на удовлетворённость пациенток результатами лечения.

Заключение: Хирургическое лечение пролапса тазовых органов является эффективным методом улучшения анатомических и функциональных показателей. Однако рецидив заболевания, стрессовое недержание мочи de novo, хроническая тазовая боль и сексуальная дисфункция остаются основными факторами, негативно влияющими на качество жизни и удовлетворённость пациенток результатами лечения. При оценке эффективности хирургической коррекции необходимо учитывать не только анатомические результаты, но и показатели качества жизни, сексуального здоровья и субъективную оценку пациенток.

Ключевые слова: пролапс тазовых органов, хирургическое лечение, отдалённые результаты, POP-Q, качество жизни, сексуальная функция, стрессовое недержание мочи, рецидив пролапса.

JALOLOVA Iroda Abdujabborovna
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti

BEMORLAR TOMONIDAN BERILGAN BAHOLASH MA’LUMOTLARI ASOSIDA CHANOQ A’ZOLARI PROLAPSINI JARROHLIK YO‘LI BILAN DAVOLASHNING UZOQ MUDDATLI NATIJALARI TAHLILI

ANNOTATSIYA

Maqsad: Chanoq a’zolari prolapsi (ChAP) bo‘lgan bemorlarda jarrohlik davolashning uzoq muddatli natijalarini baholash, davolash samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash hamda bemorlarning hayot sifati va seksual funksiyasidagi o‘zgarishlarni o‘rganish.

Material va metodlar: Tadqiqotga chanoq a’zolari prolapsi bo‘yicha jarrohlik davolash o‘tkazilgan 58 nafar ayol kiritildi. Bemorlar operatsiyadan keyin 1 yildan 3 yilgacha bo‘lgan muddatda kuzatildi. Anatomik samaradorlik POP-Q (Pelvic Organ Prolapse Quantification) tizimi yordamida baholandi. Hayot sifati va chanoq tubi funksiyasidagi o‘zgarishlar PFDI-20 va PFIQ-7 savolnomalari asosida o‘rganildi. Jinsiy faol bemorlarda seksual funksiya PISQ-12 (Pelvic Organ Prolapse/Urinary

Incontinence Sexual Questionnaire) yordamida baholandi. Jarrohlik usullari bemorning o‘z to‘qimalaridan foydalanilgan rekonstruktiv operatsiyalar (n=33) va sintetik endoprotezlar qo‘llanilgan operatsiyalar (n=25) guruhlariga ajratildi.

Natijalar: Kuzatuv davrida aksariyat bemorlarda chanoq a’zolarining anatomik holati va klinik simptomlarida sezilarli yaxshilanish kuzatildi. Operatsiyadan keyin chanoq sohasidagi bosim hissi, og‘irlik va noqulaylik sezgilari kamaydi, hayot sifati ko‘rsatkichlari yaxshilandi. Shu bilan birga, ayrim bemorlarda prolaps retsidivi, de novo stressli siydik tuta olmaslik, surunkali chanoq og‘rig‘i sindromi va seksual disfunksiya qayd etildi. Seksual faol bemorlarning bir qismida jinsiy hayot sifati yaxshilangan bo‘lsa, ayrim hollarda disparuniya, jinsiy qoniqishning pasayishi va intim munosabatlar sifatining yomonlashuvi kuzatildi. Mazkur asoratlar bemorlarning davolash natijalaridan qoniqish darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Xulosa: Chanoq a’zolari prolapsini jarrohlik yo‘li bilan davolash anatomik va funksional natijalarni yaxshilashda samarali usul hisoblanadi. Biroq kasallik retsidivi, de novo stressli siydik tuta olmaslik, surunkali chanoq og‘rig‘i va seksual disfunksiyalar bemorlarning hayot sifati hamda davolash natijalaridan qoniqishiga salbiy ta’sir etuvchi asosiy omillar bo‘lib qolmoqda. Jarrohlik davolash samaradorligini baholashda anatomik natijalar bilan bir qatorda hayot sifati, seksual salomatlik va bemorlarning subyektiv baholarini ham inobatga olish zarur.

Kalit so‘zlar: chanoq a’zolari prolapsi, jarrohlik davolash, uzoq muddatli natijalar, POP-Q, hayot sifati, seksual funksiya, stressli siydik tuta olmaslik, prolaps retsidivi.

Chanoq a’zolari prolapsi (ChAP) surunkali va progressiv kechuvchi kasallik bo‘lib, kasallikning rivojlanishi bilan klinik belgilarning tobora kuchayib borishi bilan tavsiflanadi. Patologik jarayonning chuqurlashishi natijasida siydik chiqarish, defekatsiya va reproduktiv funksiyalar bilan bog‘liq buzilishlar yuzaga keladi hamda ularning og‘irligi ortib boradi. Bu holat nafaqat ayollarning jismoniy salomatligiga, balki ularning psixoemotsional holati, ijtimoiy faolligi va hayot sifatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, chanoq a’zolari prolapsining jinsiy hayot sifatiga ta’siri alohida ahamiyatga ega bo‘lib, qin sohasidagi noqulaylik, og‘riq, begona jism hissi, o‘zini past baholash va intim munosabatlardan qochish holatlari ko‘plab bemorlarda jinsiy faollikning pasayishiga olib keladi. Shu sababli zamonaviy tibbiyotda hayot sifati va seksual salomatlikni baholash davolash samaradorligining muhim mezonlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda chanoq a’zolari prolapsini davolashning asosiy usuli jarrohlik korreksiyasi hisoblanadi. Jarrohlik aralashuvining asosiy maqsadi chanoq tubining anatomik yaxlitligini tiklash, a’zolarning normal o‘zaro joylashuvini qayta barqarorlashtirish, funksional buzilishlarni bartaraf etish hamda kasallik retsidivining oldini olishdan iborat. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar asosan yangi jarrohlik texnologiyalarini ishlab chiqish va mavjud usullarning anatomik samaradorligini baholashga qaratilgan. Biroq so‘nggi yillarda bemorga yo‘naltirilgan yondashuv tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Unga ko‘ra, davolash muvaffaqiyati nafaqat anatomik natijalar, balki bemorning hayot sifati, funksional holati va jinsiy faolligining yaxshilanishi bilan ham baholanadi.

Chanoq a’zolarining anatomik holatini tiklash aksariyat hollarda klinik simptomlarning kamayishiga olib keladi. Biroq ijobiy anatomik natija har doim ham bemorning davolashdan qoniqish darajasi bilan to‘liq muvofiq kelavermaydi. Operatsiyadan keyin paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan siydik tuta olmaslik, surunkali chanoq og‘rig‘i, disparuniya, seksual disfunksiya va boshqa funksional buzilishlar anatomik natija yaxshi bo‘lgan taqdirda ham hayot sifatining pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu munosabat bilan chanoq a’zolari prolapsini jarrohlik yo‘li bilan davolashning uzoq muddatli natijalarini baholashda obyektiv klinik ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda bemorlarning subyektiv fikri, ularning jismoniy, ruhiy va seksual holatini ham hisobga olish zarur.

Ushbu tadqiqotning maqsadi chanoq a’zolari prolapsini jarrohlik yo‘li bilan davolashning uzoq muddatli natijalarini bemorlar tomonidan berilgan baholar asosida tahlil qilish hamda hayot sifati va davolash natijalaridan qoniqish darajasiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlashdan iborat bo‘ldi. Bunda operatsiyadan keyingi seksual funksiya holatini baholashga alohida e’tibor qaratildi,

chunki jinsiy salomatlikni saqlash va yaxshilash ayollarning tibbiy hamda ijtimoiy reabilitatsiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotga chanoq a’zolari prolapsi bo‘yicha turli xil rekonstruktiv jarrohlik amaliyotlarini boshdan kechirgan bemorlar kiritildi. Jarrohlik aralashuvlari apikal fiksatsiya va fassial rekonstruksiyaning turli kombinatsiyalarini o‘z ichiga olgan. Qo‘llanilgan material turiga qarab barcha operatsiyalar ikki asosiy guruhga ajratildi: bemorning o‘z to‘qimalaridan foydalanilgan rekonstruktiv operatsiyalar – 33 holat va sintetik endoprotezlar qo‘llanilgan operatsiyalar – 25 holat. O‘tkazilgan qiyosiy tahlil turli jarrohlik usullarining nafaqat anatomik natijalarga, balki bemorlarning hayot sifati, seksual funksiyasi va uzoq muddatli davrdagi qoniqish darajasiga ta’sirini baholash imkonini berdi.

Materiallar va tadqiqot usullari

Chanoq a’zolari prolapsini (ChAP) jarrohlik yo‘li bilan davolashning uzoq muddatli natijalari operatsiyadan keyin 1 yildan 3 yilgacha bo‘lgan kuzatuv davrida 58 nafar bemorda baholandi. Tadqiqot Xelsinki deklaratsiyasi talablariga muvofiq o‘tkazildi. Barcha ishtirokchilardan tadqiqotda qatnashish uchun ixtiyoriy xabardor qilingan rozilik olindi. Tadqiqotga kiritilgan bemorlarning yoshi 35 yoshdan 78 yoshgacha bo‘lib, o‘rtacha yoshi 56,2±8,4 yilni tashkil etdi. Reproduktiv davrdagi ayollar 15 nafarni (25,9%), perimenopauza davridagilar 12 nafarni (20,7%) va postmenopauzadagi bemorlar 31 nafarni (53,4%) tashkil qildi. Jami 24 nafar (41,4%) bemor jinsiy faol bo‘lgan. POP-Q tasnifi bo‘yicha II darajali prolaps 11 nafar (19,0%) bemorda, III darajali prolaps 34 nafarida (58,6%) va IV darajali prolaps 13 nafarida (22,4%) aniqlandi. Postgisterektomik prolaps 7 nafar (12,1%) bemorda qayd etildi. Ulardan 3 nafarida prolaps subtotal gisterektomiyadan keyin, 2 nafarida total gisterektomiyadan keyin rivojlangan bo‘lsa, 2 nafar bemorda postgisterektomik prolapsning retsidiv shakli aniqlandi.

Ayrim bemorlarda hamroh ginekologik kasalliklar kuzatildi. Jumladan, tuxumdon kistasi 2 nafar, bachadon miomasi 8 nafar va bachadon bo‘ynining og‘ir displaziyasi 1 nafar bemorda aniqlandi. Ushbu holatlar jarrohlik usulini tanlashda inobatga olindi. Operatsiyagacha bo‘lgan tekshiruvlarda 9 nafar (15,5%) bemorda stressli siydik tuta olmaslik aniqlandi. Ulardan 3 nafarida Kelli usuli bo‘yicha suburetral plikatsiya, 4 nafarida transobturator sintetik tasma (sling) qo‘llanilgan holda bir vaqtning o‘zida korreksiya bajarildi. 2 nafar bemor esa qo‘shimcha antiinkontinensiya operatsiyasini o‘tkazishdan bosh tortdi. Tadqiqot davomida jarrohlik davolashning nafaqat anatomik samaradorligi, balki bemorlarning hayot sifati va seksual funksiyasiga ta’siri ham baholandi. Buning uchun PFDI-20 va PFIQ-7 savolnomalari yordamida chanoq tubi disfunksiyasining kundalik hayotga ta’siri o‘rganildi. Jinsiy faol bemorlarda PISQ-12 savolnomasi asosida seksual funksiya holati baholandi. Bunda jinsiy qoniqish darajasi, disparuniya mavjudligi, jinsiy hayot sifati va intim munosabatlarga ta’sir qiluvchi omillar tahlil qilindi. Bu esa jarrohlik davolashning uzoq muddatli natijalarini bemor nuqtai nazaridan kompleks baholash imkonini berdi. Chanoq a’zolari prolapsini jarrohlik yo‘li bilan davolashda apikal fiksatsiya va fassial rekonstruksiyaning turli kombinatsiyalaridan foydalanildi. Qo‘llanilgan jarrohlik usullari shartli ravishda ikki asosiy guruhga ajratildi: bemorning o‘z to‘qimalaridan foydalanilgan rekonstruktiv operatsiyalar – 33 ta (56,9%) holat va sintetik endoprotezlar qo‘llanilgan jarrohlik aralashuvlari – 25 ta (43,1%) holat. Autologik to‘qimalardan foydalanilgan operatsiyalarda chanoq tubining anatomik tuzilmalarini tiklash mahalliy fassial va boylam apparatlarini rekonstruksiya qilish hisobiga amalga oshirildi. Sintetik endoprotezlar qo‘llanilgan holatlarda esa chanoq a’zolarini qo‘llab-quvvatlash va prolaps retsidivining oldini olish maqsadida zamonaviy to‘rsimon implantlardan foydalanildi. Har ikki guruhda operatsiya natijalari anatomik samaradorlik, funksional holat, hayot sifati hamda seksual funksiya ko‘rsatkichlari bo‘yicha qiyosiy baholandi.

So‘rovnoma savollaridan birortasiga ijobiy javob olingan hollarda qo‘shimcha aniqlashtiruvchi savollar berildi. Xususan, aniqlangan simptom yoki holat operatsiyadan oldin ham mavjud bo‘lganligi yoki yo‘qligi, shuningdek, agar mazkur holat operatsiyagacha kuzatilmagan bo‘lsa, bemor uning paydo bo‘lishini o‘tkazilgan jarrohlik aralashuvi bilan bog‘lash-bog‘lamasligi aniqlandi. Bemorlarning jarrohlik davolash natijalariga munosabatini umumiy baholash maqsadida «Siz o‘tkazilgan jarrohlik davolash natijasidan qoniqasizmi?» degan yakuniy savol qo‘yildi. Mazkur

savol bemorlarning subyektiv qoniqish darajasini va operatsiya samaradorligini ularning nuqtai nazaridan baholash imkonini berdi. Tadqiqot kuzatuv va tavsifiy xarakterga ega bo‘lib, unda qiyosiy tahlil uchun alohida nazorat yoki taqqoslash guruhlari shakllantirilmadi. Shu sababli olingan natijalarni baholashda matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilmadi. Tadqiqot davomida to‘plangan ma’lumotlar asosan sifat jihatidan tahlil qilinib, bemorlarning hayot sifati, funksional holati, seksual salomatligi va jarrohlik davolash natijalaridan qoniqish darajasini tavsiflashga qaratildi.

Tadqiqot natijalari

Operatsiyadan keyingi kuzatuv davrida chanoq a’zolari prolapsini jarrohlik yo‘li bilan davolashning anatomik samaradorligi POP-Q tizimi asosida baholandi. Qin anatomiyasining nazorat nuqtalari tahlili aksariyat bemorlarda chanoq a’zolarining anatomik holati yaxshilanganligini ko‘rsatdi. Qoniqarli anatomik natija sifatida prolapsning I darajasidan oshmagan holatlar qabul qilindi, II va undan yuqori darajadagi o‘zgarishlar esa retsidiv sifatida baholandi. Tadqiqotga kiritilgan 58 nafar bemorning 33 nafarida (56,9%) rekonstruktiv operatsiyalar bemorning o‘z to‘qimalaridan foydalangan holda bajarilgan bo‘lsa, 25 nafarida (43,1%) sintetik endoprotezlar qo‘llanildi. Jarrohlik usullarining samaradorligi anatomik natijalar, chanoq a’zolari funksiyasi, hayot sifati va seksual funksiya ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholandi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, operatsiyadan keyin aksariyat bemorlarda chanoq sohasidagi noqulaylik hissi, bosim va og‘irlik sezgisi kamayganligi qayd etildi. Biroq ayrim bemorlarda chanoq a’zolari disfunksiyasi bilan bog‘liq simptomlarning saqlanib qolishi yoki qayta paydo bo‘lishi kuzatildi. Bunday holatlar hayot sifati ko‘rsatkichlarining pasayishi va davolash natijalaridan qoniqish darajasining kamayishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Seksual faol bemorlarda o‘tkazilgan baholash natijalari operatsiyadan keyin intim hayot sifati yaxshilanganligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, ayrim holatlarda disparuniya, jinsiy faollikning cheklanishi yoki jinsiy qoniqishning pasayishi kuzatildi. Ushbu holatlar asosan operatsiyadan keyingi funksional buzilishlar yoki anatomik retsidivlar bilan bog‘liq bo‘ldi.

Umuman olganda, jarrohlik davolash chanoq a’zolari prolapsining klinik belgilari va funksional buzilishlarini kamaytirish, bemorlarning hayot sifati hamda seksual salomatligini yaxshilashda samarali usul ekanligi qayd etildi. Tadqiqot davomida siydik tuta olmaslik simptomlarining operatsiyadan keyingi holati alohida baholandi. Chanoq a’zolari prolapsini jarrohlik yo‘li bilan davolash vaqtida antiinkontinensiya korreksiyasini qabul qilmagan ayrim bemorlarda keyingi kuzatuvlarda mazkur simptomlarning kamayishi yoki to‘liq yo‘qolishi qayd etildi. Bu holat chanoq a’zolari prolapsini korreksiya qilishning ayrim bemorlarda siydik chiqarish funksiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, bir qator bemorlarda operatsiyadan keyin ham stressli siydik tuta olmaslik belgilari saqlanib qolgan yoki ilk bor namoyon bo‘lgan. Ayrim bemorlar mazkur holatni o‘tkazilgan jarrohlik aralashuvi bilan bog‘lashgan. De novo stressli siydik tuta olmaslikning rivojlanishi bemorlarning hayot sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ularning jismoniy faolligi, mehnat qobiliyati va ijtimoiy faolligi cheklanishiga sabab bo‘lgan.

Seksual funksiyani baholash natijalari operatsiyadan keyingi davrda turlicha o‘zgarishlarni ko‘rsatdi. Bemorlarning bir qismi intim hayot sifatida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilganligini ta’kidladi. Ular jinsiy xohishning ortishi, jinsiy qoniqish darajasining yaxshilanishi hamda prolaps bilan bog‘liq noqulaylik hissining kamayganligini qayd etdilar.

Biroq ayrim bemorlarda seksual funksiyaning yomonlashuvi kuzatildi. Bunday holatlarda asosiy shikoyatlar jinsiy aloqa vaqtida og‘riq (disparuniya), jinsiy faollikning pasayishi va intim munosabatlardan qoniqish darajasining kamayishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Ayrim bemorlarda jinsiy aloqa vaqtida siydik tuta olmaslik epizodlari qayd etilgan bo‘lib, bu holat ularda xavotir, uyalish, o‘zidan norozilik va psixologik diskomfort paydo bo‘lishiga olib kelgan.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, operatsiyadan keyingi davrda hayot sifati va davolash natijalaridan qoniqish darajasiga salbiy ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida chanoq a’zolari prolapsining retsidivi, de novo stressli siydik tuta olmaslik, surunkali chanoq og‘riği sindromi hamda seksual disfunksiyalar namoyon bo‘lgan. Mazkur holatlar mavjud bo‘lgan bemorlar jarrohlik davolash natijalarini ko‘proq salbiy baholaganlar.

Umuman olganda, jarrohlik davolash chanoq a’zolari prolapsining klinik simptomlarini kamaytirish, hayot sifati va seksual salomatlik ko‘rsatkichlarini yaxshilashda samarali bo‘lgan. Biroq operatsiyadan keyingi funksional buzilishlar va seksual disfunksiyalarning saqlanib qolishi yoki rivojlanishi ayrim bemorlarda davolash natijalaridan qoniqmaslikning asosiy sabablaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Muhokama

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari chanoq a’zolari prolapsini jarrohlik yo‘li bilan davolashdan keyin ham ayrim bemorlarda anatomik va funksional buzilishlar saqlanib qolishi mumkinligini ko‘rsatdi. Olingan ma’lumotlar adabiyotlarda keltirilgan natijalar bilan muvofiq bo‘lib, kasallik retsidivi jarrohlik davolashdan keyingi eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, retsidivlar uchrash chastotasining yosh ortishi bilan ko‘payishi ham boshqa tadqiqotlar natijalari bilan uyg‘un ekanligi qayd etildi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, bemorlarning jarrohlik davolash natijalaridan norozi bo‘lishiga asosiy sabab sifatida kasallik retsidivi namoyon bo‘ldi. Shu bilan birga, operatsiyadan keyin rivojlangan de novo stressli siydik tuta olmaslik, seksual funksiyaning yomonlashishi va surunkali chanoq og‘rig‘i sindromi ham bemorlarning hayot sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillar sifatida aniqlandi.

Bemorlar tomonidan berilgan baholar tahlili shuni ko‘rsatdiki, anatomik jihatdan muvaffaqiyatli deb baholangan holatlarda ham ayrim funksional buzilishlar saqlanib qolishi mumkin. Xususan, siydik chiqarish va ichak faoliyati bilan bog‘liq ayrim simptomlar operatsiyadan keyin ham kuzatildi. Bu holatlar nafaqat chanoq a’zolari prolapsi bilan, balki yoshga bog‘liq o‘zgarishlar, metabolik buzilishlar va boshqa hamroh kasalliklar bilan ham izohlanishi mumkin.

Tadqiqotning muhim jihatlaridan biri seksual funksiyani baholash bo‘ldi. Natijalarga ko‘ra, bemorlarning bir qismida operatsiyadan keyin jinsiy hayot sifati yaxshilangan bo‘lsa, boshqa bir qismida aksincha, intim munosabatlardan qoniqish darajasi pasayganligi qayd etildi. Seksual funksiyaning yomonlashishiga asosiy sabablar sifatida disparuniya, jinsiy aloqa vaqtidagi noqulaylik hissi, surunkali chanoq og‘rig‘i hamda siydik tuta olmaslik epizodlari qayd etildi. Ayniqsa, jinsiy aloqa vaqtida siydik tuta olmaslik holatlari bemorlarda psixologik diskomfort, xavotir, uyalish hissi va o‘zini past baholash kabi holatlarni keltirib chiqargan. Shu munosabat bilan chanoq a’zolari prolapsini jarrohlik yo‘li bilan davolash samaradorligini baholashda faqat anatomik natijalar bilan cheklanib qolmasdan, bemorlarning hayot sifati, psixoemotsional holati va seksual salomatligiga ham alohida e’tibor qaratish lozim. Chunki operatsiyaning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan bemorning o‘zini qanday his qilishi, kundalik va ijtimoiy faolligi hamda intim hayoti sifati bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalari chanoq a’zolari prolapsini jarrohlik yo‘li bilan davolash aksariyat bemorlarda ijobiy anatomik va funksional samara berganligini ko‘rsatdi. Biroq retsidivlar, de novo stressli siydik tuta olmaslik, surunkali chanoq og‘rig‘i sindromi va seksual disfunksiyalar operatsiyadan keyingi davrda hayot sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillar bo‘lib qolmoqda. Kelgusida ushbu asoratlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik va reabilitatsion chora-tadbirlarni takomillashtirish zarur hisoblanadi.

Prolaps simptomlari kuzatilgan bemorlarning barchasida ham mazkur holat jarrohlik davolash natijalaridan norozilikka sabab bo‘lmagan. Bemorlarning bir qismida anatomik retsidiv mavjud bo‘lishiga qaramasdan, uning hayot sifatiga ta’siri ahamiyatsiz deb baholangan. Bu holat chanoq a’zolari prolapsining klinik belgilari va bemor tomonidan qabul qilinishi har doim ham obyektiv anatomik ko‘rsatkichlar bilan to‘liq muvofiq kelmasligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, davolash samaradorligini baholashda nafaqat anatomik natijalar, balki bemorning subyektiv hissiyoti va hayot sifati ko‘rsatkichlarini ham hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Jarrohlik davolashdan keyin retsidivlar uchrash chastotasining saqlanib qolayotganligi mazkur muammoning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi. Bu holat retsidiv rivojlanishiga olib keluvchi xavf omillarini chuqur o‘rganish va yuqori xavf guruhiga kiruvchi bemorlarda sintetik materiallardan foydalanish uchun aniq ko‘rsatmalarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Bemorlarning davolash natijalaridan qoniqmasligiga olib keluvchi muhim omillardan biri operatsiyadan keyin rivojlangan de novo stressli siydik tuta olmaslik hisoblanadi. Stressli siydik tuta

olmaslik ham, chanoq a’zolari prolapsi ham chanoq tubi disfunksiyasining asosiy klinik ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, ularning patogenezi o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Prolaps mavjud bo‘lgan holatlarda yashirin siydik tuta olmaslik mexanizmlarining shakllanishi mumkin. Jarrohlik yo‘li bilan prolaps bartaraf etilganidan keyin ushbu kompensator mexanizmlar yo‘qolib, operatsiyagacha namoyon bo‘lmagan siydik tuta olmaslik simptomlari yuzaga chiqishi mumkin.

Hozirgi vaqtda operatsiyadan keyin rivojlanuvchi stressli siydik tuta olmaslikning oldini olish bo‘yicha yagona yondashuv mavjud emas. Shu sababli chanoq a’zolari prolapsini jarrohlik yo‘li bilan davolashga tayyorgarlik ko‘rish bosqichida yashirin siydik tuta olmaslikni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu bemorni ehtimoliy xavflar haqida oldindan xabardor qilish, davolash taktikasini muhokama qilish va operatsiya hajmini birgalikda belgilash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari seksual funksiyaning hayot sifatidagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqladi. Seksual salomatlik ayolning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Chanoq a’zolari prolapsi mavjud bo‘lgan bemorlarda anatomik nuqsonlarning bartaraf etilishi, simptomlarning kamayishi va o‘z tanasiga nisbatan ijobiy munosabat shakllanishi tufayli operatsiyadan keyin seksual hayot sifati yaxshilanishi mumkin. Biroq jarrohlik aralashuvining o‘zi ham ayrim holatlarda seksual funksiyaga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Jarrohlikdan keyin hosil bo‘ladigan chandiq to‘qimalar, mahalliy qon aylanishi va innervatsiyaning o‘zgarishi, qin uzunligi va o‘qining o‘zgarishi, shuningdek gormonal omillar jinsiy faollikning pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Tadqiqot davomida ayrim bemorlarda disparuniya, jinsiy xohishning pasayishi, jinsiy qoniqish darajasining kamayishi va intim munosabatlar sifati yomonlashganligi qayd etildi. Mazkur holatlar bemorlarning operatsiya natijalaridan qoniqish darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Shu munosabat bilan operatsiya usulini tanlashda bemorning yoshi, reproduktiv rejalari, jinsiy faolligi va hayot sifati bilan bog‘liq ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy rekonstruktiv jarrohlik usullarining keng imkoniyatlari har bir bemor uchun individuallashtirilgan yondashuvni qo‘llash imkonini beradi. Bundan tashqari, ayrim bemorlarda bachadon ekstirpatsiyasidan keyin kuzatilgan surunkali chanoq og‘rig‘i sindromi ham hayot sifatiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Doimiy og‘riq sindromi jismoniy faollikning cheklanishi, psixoemotsional buzilishlar va ijtimoiy moslashuvning pasayishiga olib kelib, bemorlarning jarrohlik davolash natijalarini salbiy baholashiga sabab bo‘ldi. Shunday qilib, chanoq a’zolari prolapsini jarrohlik yo‘li bilan davolash samaradorligini baholashda anatomik natijalar bilan bir qatorda hayot sifati, seksual funksiya, siydik chiqarish funksiyasi va psixoemotsional holat kabi ko‘rsatkichlarni ham kompleks tahlil qilish zarur hisoblanadi.

Xulosa

Bemorlar tomonidan berilgan baholarni tahlil qilish chanoq a’zolari prolapsini jarrohlik yo‘li bilan davolash natijalarini nafaqat anatomik nuqsonlarni bartaraf etish nuqtai nazaridan, balki funksional natijalar va bemorlarning hayot sifati jihatidan ham har tomonlama baholash imkonini berdi. Tadqiqot natijalari bemorlarning davolash natijalaridan qoniqmasligiga sabab bo‘luvchi asosiy omillarni aniqlash imkonini berdi. Bunday omillar qatoriga kasallik retsidivining rivojlanishi, operatsiyadan keyin paydo bo‘lgan de novo stressli siydik tuta olmaslik, seksual disfunksiyalar hamda ayrim holatlarda surunkali chanoq og‘rig‘i sindromi kiradi. Mazkur holatlar bemorlarning jismoniy faolligi, psixoemotsional holati, ijtimoiy faolligi va intim hayoti sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, jarrohlik davolash natijalarining subyektiv bahosini pasaytirgan.

O‘tkazilgan tadqiqot chanoq a’zolari prolapsini jarrohlik yo‘li bilan davolash samaradorligini yanada oshirish uchun qo‘shimcha o‘rganishni talab qiluvchi qator muhim yo‘nalishlarni belgilab berdi. Ularga quyidagilar kiradi: biriktiruvchi to‘qimalarning funksional yetishmovchiligi yuqori bo‘lgan xavf guruhidagi bemorlarni aniqlash mezonlarini ishlab chiqish; sintetik endoprotezlardan foydalanish uchun ko‘rsatmalarni takomillashtirish; sintetik materiallar qo‘llanilgan holatlarda retsidivlar rivojlanishining sabablarini chuqur o‘rganish; yashirin stressli siydik tuta olmaslikni aniqlashning samarali va amaliyotda qo‘llash mumkin bo‘lgan diagnostika usullarini joriy etish; turli rekonstruktiv jarrohlik usullarining seksual funksiya va intim hayot sifatiga ta’sirini o‘rganish; operatsiyadan keyingi davrda hayot sifati va seksual salomatlikni yaxshilashga qaratilgan reabilitatsiya dasturlarini takomillashtirish. Shunday qilib, chanoq a’zolari prolapsini jarrohlik yo‘li

bilan davolash samaradorligini baholashda anatomik natijalar bilan bir qatorda funksional holat, hayot sifati, seksual funksiya va bemorlarning davolash natijalaridan qoniqish darajasini ham kompleks baholash muhim ahamiyatga ega. Шундай қилиб, чаноқ аъзолари пролапсини хирургик даволаш самарадорлигини баҳолашда анатомик натижалар билан бир қаторда функционал ҳолат, ҳаёт сифати, сексуал функция ва беморларнинг даволаш натижаларидан қониқиш даражасини ҳам комплекс баҳолаш муҳим аҳамиятга эга.

REFERENCES/СНОСКИ/IQTIBOSLAR:

1. Bondarchuk S.V., Ionova T.I., Odin V.I. et al. Principles and Methods of Quality of Life Research in Medicine. Saint Petersburg: Military Medical Academy; 2020. 102 p.
2. Robinson D., Prodigalidad L.T., Chan S., et al. International Urogynecology Consultation Chapter 1 Committee 4: Patients' Perception of Disease Burden of Pelvic Organ Prolapse. Int Urogynecol J. 2022;33(2):189–210.
3. Barber M.D., Walters M.D., Bump R.C. Short Forms of Two Condition-Specific Quality-of-Life Questionnaires for Women with Pelvic Floor Disorders (PFDI-20 and PFIQ-7). Am J Obstet Gynecol. 2005;193(1):103–113.
4. Rogers R.G., Coates K.W., Kammerer-Doak D., et al. A Short Form of the Pelvic Organ Prolapse/Urinary Incontinence Sexual Questionnaire (PISQ-12). Int Urogynecol J. 2003;14(3):164–168.
5. Maher C., Feiner B., Baessler K., Schmid C. Surgical Management of Pelvic Organ Prolapse in Women. Cochrane Database Syst Rev. 2013;(4).
6. Barber M.D. Pelvic Organ Prolapse. BMJ. 2016;354.
7. Dietz H.P., Maher C. Pelvic Organ Prolapse and Sexual Function. Int Urogynecol J. 2013;24(11):1853–1857.
8. Nygaard I., Barber M.D., Burgio K.L., et al. Prevalence of Symptomatic Pelvic Floor Disorders in US Women. JAMA. 2008;300(11):1311–1316.
9. Haylen B.T., de Ridder D., Freeman R.M., et al. An International Urogynecological Association (IUGA) / International Continence Society (ICS) Joint Report on Terminology for Female Pelvic Floor Dysfunction. Neurourol Urodyn. 2010;29(1):4–20.
10. Jelovsek J.E., Maher C., Barber M.D. Pelvic Organ Prolapse. Lancet. 2007;369(9566):1027–1038.
11. Bump R.C., Mattiasson A., Bø K., et al. The Standardization of Terminology of Female Pelvic Organ Prolapse and Pelvic Floor Dysfunction. Am J Obstet Gynecol. 1996;175(1):10–17.
12. Altman D., Väyrynen T., Engh M.E., et al. Anterior Colporrhaphy versus Transvaginal Mesh for Pelvic Organ Prolapse. N Engl J Med. 2011;364(19):1826–1836.
13. Serati M., Salvatore S., Uccella S., et al. Surgical Treatment for Pelvic Organ Prolapse and Its Effects on Female Sexuality. J Sex Med. 2011;8(5):1470–1478.
14. Alimjanovich J. R., Agababyan L. R., Kamalov A. I. Prevention and Treatment of Postpartum Hemorrhage // Central Asian Journal of Medical and Natural Sciences. – 2021. – Vol. 2, No. 4. – P. 204–209.
15. Alimdjanovich J. R., Ibragimovich A. K. Organization of Monitoring of the Quality of Services Provided for the Prevention and Fight Against Postpartum Bleeding in Women // Central Asian Journal of Medical and Natural Sciences. – 2021. – Vol. 2, No. 6. – P. 14–21.
16. Brubaker L., Cundiff G.W., Fine P., et al. Abdominal Sacrocolpopexy with Burch Colposuspension to Reduce Urinary Stress Incontinence. N Engl J Med. 2006;354(15):1557–1566.
17. Weber A.M., Walters M.D., Piedmonte M.R., Ballard L.A. Anterior Colporrhaphy: A Randomized Trial of Three Surgical Techniques. Am J Obstet Gynecol. 2001;185(6):1299–1306.

ISSN 2181-9300

DOI Journal 10.26739/2181-9300

БИОМЕДИЦИНА ВА АМАЛИЁТ ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ БИОМЕДИЦИНЫ И ПРАКТИКИ
JOURNAL OF BIOMEDICINE AND PRACTICE

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000